

TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ

—
JOURNAL
2022

№3

Bosh muharrir:

Pardayev A.H. JDPI, tarix fakulteti dekani, t.f.n. dosent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Aqchayev F.Sh. JDPI, tarix fakulteti, t.f.b.f.d. (PhD), dosent.

Mas'ul kotiblar:

Saidov J.O. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi
Xo‘janova M. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi

Tahririyat a'zolari:

- 1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik,**
- 2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dosent,**
- 8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 9. Yarmatov R. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent,**
- 11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dosent,**
- 12. Toshboev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dosent,**
- 14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dosent,**
- 15. G‘ofurov J. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent**
- 17. Valiev A.X. – katta o‘qituvchi,**
- 18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi,**
- 19. Karimova N. – o‘qituvchi,**

Тарих ва Жамият илмий журнали
ANTI-K DAVR USTRUSHONA KULLIK IDISHLARI HAQIDA

F.E.Toshboev – JDPI dotsenti,

F. X.Normurodova – JDPI magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ushtrushonaning antik davriga oid qablardan topilgan sopol idishlarning yasash texnologiyasi, shakli va sirtiga berilgan bezaklari mualliflar tomonidan qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ushtrushona, Qovunchi madaniyati, kulolchilik, G'ulbo, zoomorf dastali sopol idishlar, Jetiasar madaniyati, arxeologiya, mozorqo'rg'on.

Insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va madaniy boyliklar o'tmish kishilari tomonidan yaratilgan boyliklar bo'lib qolmasdan, balki o'zida inson aql-zakovati, hayoti to'g'risidagi fikrlarni aks ettirib beruvchi ko'zgu ham hisoblanadi. Inson tafakkurining mahsuli bo'lgan hunarmandchilik ham juda qadim zamonlardagi mehnat jarayonning taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan. Shu jumladan, hunarmandchilikning bir bo'laki bo'lgan kulolchilik ham qadim tarixga egadir.

Ustrushona mozorqo'rg'onlarida o'rganilgan arxeologik topilmalar ichida kulollik idishlari ko'pchilikni tashkil etib, ulardan xurmachalar, ko'za va ko'zachalar, piyolalar, kosalar, qozonlar va xumchalarni sanab ko'rsatish mumkin. Kulolchilik idishlarining asosiy qismini ko'proq ko'chmanchilar dashtlarida uchraydigan, qo'lda yasalgan sopol idishlar tashkil etadi. Sopol idishlar orasida xurmachalar ko'pchilikni tashkil etib, ular ancha pishiq va silliq yasalgan. Barcha sopol idishlarni, jumladan, xurmachalarni pishirish sifatli tarzda amalga oshirilgan. Xurmachalarning ko'pchiligi girdig'um-past bo'yli, tagdoni tekis va keng, og'iz qismi bilan idishlar balandligi ancha yirik bo'lib, diametri 1:1 ni tashkil etadi.

Ularga chizma naqshlar berish uchun to'lqinsimon va to'g'ri chiziqlardan foydalanilgan. Ayrim xurmachalarga esa umuman bezak berilmagan. Chizikli bezaklar esa, o'tkir uchli asbob yordamida idishning hali qotib ulgurmagan sirtiga chizilgan. Ba'zi xurmachalar yassi tagli bo'lib, sirti sarg'ish angob bilan qoplangan, yelka qismi hali idish loyligidayoq ikki gorizontall chiziqning o'rtasiga to'lqinsimon chizikli naqsh berib bezalgan. Yelkasi va tana qismiga to'lqinsimon chiziqchalar

Тарих ва Жамият илмий журнали

tortilgan va bu chiziqlar orasidan to'g'ri gorizontal chiziqlar o'tkazilib, bezaklar mukammallashtirilgan¹.

Ulardan G'ulbo mozorqo'rg'onlarida qayd qilingan birinchi sopol xurmachaning tashqi ko'rinishi uzunchoq dumaloq shaklda, qorin qismi tashqariga bo'rtib chiqqan, yon devorlari bo'yni tomon torayib borgan, gardishi sirtga qayrilgan. Idish loyiga mayda qum qo'shib, kulolchilik charxida yasalgan, uning ichki va tashqi tomoni qora dud bilan qoplangan. Sirtiga hech qanday chizma naqshlar berilmagan. Mazkur xurmachaga o'xshash idishlar O'rta Osiyoning shimoliy mintaqalarida keng yoyilgan ko'chmanchilar moddiy madaniyatida ko'plab uchraydi. Bu xildagi sopol idishlar milodiy I-II asrlarga oid Farg'ona vodiysi va Choch hududidagi qurum va mug'xonalarda uchraydi. Shuningdek, bu kabi idishlar milodiy eraning I-IV asrlariga oid Kugay, Qorabuloq madaniyati o'rta etaplariga taalluqli sopol idishlar va milod boshlariga mansub, Sazag'an, Quyimozor va Lavondak² qabrlaridagi sopol idishlarga juda o'xshash.

Tavsif bayoni berilgan ushbu xurmachalarga o'xshash sopol idishlar avvalo Qovunchi madaniyatiga tegishli Shoshtepa, Yangi yo'l, Qovunchitepa, Vrevskiy, Tuyabo'g'uz, Yangiyo'l qabrlaridan Farg'ona vodiysidagi milodiy I-ming yillikning birinchi yarmiga oid Bor-Korbaz, Qorabuloq, Jangail, Go'rmiron, Isfara kabi mozorqo'rg'onlarda ham ko'plab qayd qilingan³. Ularga asoslanib bu xurmachalarni milodiy eraning I- III asrlari bilan davrlash mumkin. Ular o'z xususiyatiga ko'ra Qovunchi I sopollariga ko'p jihatdan o'xshash.

Ko'zalar Shirinsoy, G'ulbo, Sag'onoq va Bekkeldi mozorqo'rg'onlarida qayd qilingan. Ko'zalar sirtiga qizil angob berish kam uchraydi. Ularga naqsh berishda ham xuddi xurmachalarni bezalishidagiga o'xshash holat kuzatiladi. Shirinsoydagi 1-mozorqo'rg'ondan jasad boshi yoniga bir baldoqli ko'zacha qo'yilgan. U nozik did bilan sirtiga qizil angob berib, to'rt re'leflni gorizontal chiziq bilan bezalgan. Uning tutqichining usti bo'rtib chiqqan bo'lib uning shakli qo'zichoqning bosh

¹ Тошбоев Ф.Э. Уструшона чорвадорларининг куллолчилик идишлари ҳақида баъзи мулоҳазалар // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тарихчилар талқинида. Самарқанд. 2016. Б. 52.

² Обельченко О.В. Сазаганские курганы // ИМКУ – Тошкент: 1966 –№7. –С. 77-78.

³ С.С. Сорокин. Некоторые вопросы происхождения керамики катакомбных могил Ферганы // СА М.: 1954. – № XX. –С. 133-143. Рис.8.

Тарих ва Жамият илмий журнали

qismiga o'xshatib yasalgan. Ko'zachaning yelkasi esa to'liqsimon chiziq bilan bezalgan. Olimlar bu kabi zoomorf dastali sopol idishlar, O'rta Sirdaryo bo'ylaridagi Qang' davriga oid kulollik mahsulotlarida, ayniqsa, Qovunchi I va so'nggi Qang' (Qovunchi II) davrida, ko'p uchrashini ta'kidlangan⁴. Shuningdek, bu xildagi sopol idishlar milodiy era boshlariga oid alan va sarmatlarga mansub kulollik idishlari orasida ham ko'p uchraydi.

Ushbu sopol idishlar Qovunchi madaniyati dastlabki bosqichlariga oid bo'lib, bu kulolchilik idishlariga akademik A.A.Asqarov shunday ta'rif berganlar, "... yupqa devorli, hajmi kichikroq, asosan kulolsozlikning sekin aylanuvchi charxda ishlangan. Bu davr keramikasida – xum va xumchalar hamda xurmachalar sirtida to'q jigarrang oqizma rang taramlarini paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Xumcha va xurmachalarning aksariyati qo'shquloqli, krujkalar dastasi hayvon figurasi ko'rinishida ishlangan. Ko'za va xurmachalar orasida qator nov shaklli chizgilar bilan bezatilgan Jetiasar madaniyatiga xos idishlar, xayvon dastali, jo'mrakli ko'zalar uchraydi"⁵. Bunday xususiyatlar yuqorida sanab o'tilayotgan xurmachalarga ham xos hisoblanadi.

O'rganilgan mozorqo'rg'onlarda ancha kam uchragan tiplardan yana biri bu Shirinsoydagi 14-qabrdan topilgan bir tomonli sharsimon bo'rtib chiqqan ikkinchi tomoni tekis shaklda (xurjunda olib yurishga qulay qilib) yasalgan mustaxara (flaga)dir. Uning bo'rtiq tomoniga spiralsimon tasvir berib bezalgan, yuqori qismi esa sarg'ish angob bilan bo'yalgan. Bunday shaklga ega mustaxara-suvdonlar O'ratepa yaqinidagi milodiy I asrga oid Tepai-Pirmuhammad mozorqo'rg'oni, Zarafshon vohasidagi milodiy I-II asrlarga oid mozorqo'rg'onlar hamda, Farg'ona vodiysidagi milodiy era boshlariga mansub Jangail yodgorliklarida uchraydigan mustaxaralar bilan yaqin muqoyasaviy o'xshashlikka ega⁶. Bu mustaxaralar asosan qizil rangli angob bilan bo'yalgan bo'lsada, oq angob bilan bo'yalganlari ham

⁴ Литвинский Б.А. Кангюйско-сарматский фарн... Душанбе, 1968. С. 62.

⁵ Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент, 2015. Б. 312.

⁶ Негматов Н.Н., Салтовская Е.Д., Кяткина Т.П. Изучение погребальных памятников кочевников на территории Уструшаны // АРТ Сталинабад: 1961. - № VI (1958г), -С. 137-139.

Тарих ва Жамият илмий журнали

uchraydi. 14-qabrdan mustaxara bilan birga uch oyoqli sopol idish ham qayd qilingan

Shunday qilib, yuqorida sanab o'tilgan kulolchilik mahsulotlarida Qovunchi madaniyatining ta'siri kuchli seziladi. Sopol idishlar tarkibida katta va kichik hajmdagi miskalar, flagalar, tovalar, chiroqdonlar, qo'chqor boshli sopol qozon tagkursilari qozon va idish qopqoqlari ham uchraydi. Umuman olganda, o'rganilgan sopol idishlarning barchasining yasalish texnologiyasi, shakli va sirtiga berilgan bezaklarida yuqorida ta'riflangan xususiyatlar mavjud.